

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION” International Conference on Teacher Education

TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI GRAMMATIK KOMPETENSIYALARINI DICTOGLOSS ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.

Ganiyeva Dilfuzaxon Qodirjon qizi,
Sirdaryo viloyati Guliston davlat
universiteti tayanch doktoranti
dilfuzaganiyeva57@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada talabalarning ingliz tilidagi grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishda dictogloss texnologiyasining amaliy ahamiyati va lingvodidaktik xususiyatlari ko‘riladi va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: dictogloss, grammatik kompetensiya, diktant, deduktiv, induktiv yondashuv, grammatika, grammatik diktant

Biz yashayotgan globallashuv zamonida, xorijiy tillarni o‘rganish va til ko‘nikmalarini hosil qilib, erkin muloqotga kirisha o‘lishlik zamonaviy hayotimizning eng dolzarb ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Buning sabablari, mamlakatlar o‘rtasidagi faol savdo-sotiq, tashqi siyosat va axborot almashish ko‘lamining o‘sishi bilan xarakterlanadi. Mamlakatimizda ham xorijiy tillarni o‘rganishga qaratilgan chora- tadbirlar va qarorlar salomog‘i oshib, kundan-kunga qiziqish ortib bormoqda. Dunyo bo‘yicha ingliz tili eng ko‘p so‘zlashiladigan va axborot uzatiladigan tillardan biri hisoblanadi. Bu tilni o‘rganish uchun ko‘plab vositalar, metodlar va usullar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu tilni o‘rganishni birmuncha osonlashtiradi. Ayniqsa, kommunikatsion muhit bo‘lmagan sharoitda bunday metod va texnologiyalar til muhitini shakllantiradi.

Har bir til ma‘lum bir til muhitida egallanadi. Uni o‘rganishga esa ana shu muhit bo‘lmaganda kirishiladi. O‘zga tilni o‘rganish albatta o‘sha tilning qurilishi grammatikasini o‘rganishdan boshlanadi. Grammatikani o‘rganishda esa ikki xil yondashuv: deduktiv va induktiv yondashuvlar mavjud bo‘lib, so‘nggi yillarda induktiv yondashuvning amaliy ahamiyati o‘sib bormoqda. Dictogloss ham grammatik qoidalarni o‘rgatish va ularni amalda qo‘llay olishga yordam beruvchi induktiv yondashuvning bir ko‘rinishidir.

Dictogloss (dictation+ glossary) interaktiv metod sifatida birinchi bor Rut Vajribning (Ruth Waynrub, 1990) “Gramatik diktant” (Grammar dictation) kitobida Vajrib tomonidan tanishtirilgan. Dictogloss diktant turlarining biri bo‘lib, o‘zining maqsadi, mohiyatiga ko‘ra, an’anaviy diktantga o‘xshaydi va o‘quvchilar tomonidan ular eshitgan matnni uning mazmuni va leksik-grammatik mazmunini asl nusxaga iloji boricha yaqinlashtirish orqali takrorlash va qayta tiklashdan iborat.[1,42] Diktoglossda, kichik matn o‘rta tezlikda o‘quvchilarga o‘qib eshittiriladi va eshinish davomida ular kalit so‘zlarni yozib oladilar. Diktant o‘qib berilgandan so‘ng ular

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

o‘zlari yozib olgan so‘zlar yordamida matn tuzadilar. Kichik guruhlarda esa, guruh a‘zolari birgalikda har birlari yozib olgan kalit so‘zlardan foydalangan holda birgalikda asl matnni qayta yozib chiqadilar va bu jarayon oxirida asl matn bilan solishtirib, tahlil qiladilar. Bunda asosan, grammatikaga urg‘u beriladi. Rutga ko‘ra, dictogloss besh bosqichda amalga oshiriladi.

a) kichik hajmli matn ikki marotaba o‘quvchilarga o‘rta tezlikda o‘qib beriladi.

b) o‘qish jarayonida, o‘quvchilar muhim so‘z va birikmalarni yozib oladilar.

d) kichik guruhlarda ishlab, o‘quvchilar matnni qaytadan yozib olgan so‘z va birikmlaridan foydalangan holda matn tuzib chiqadilar.

e) har bir guruh o‘quvchilari o‘zlarining qayta tuzgan variantini, grammatik tuzulishi va mazmuniy to‘g‘riligiga e‘tibor qaratgan holda ishlab chiqadi, lekin, aynan asl matn takrorlanmaydi.

f) har xil nusxalar tahlil qilinadi va tekshiriladi hamda talabalar o‘zlari tuzib chiqqan matnni keraksiz qismlarini o‘chirib, to‘g‘rilaydi va muhokama qiladilar.[2,5-6]

Dictogloss an’anaviy diktant va uning turlaridan tubdan farq qilib, nafaqat grammatika qoidalarini tushunib, ularni qo‘llash uchun balki, talabarning interaktivligini ham ta‘milab beradi.[5,138] Diktant (lotincha “aytib turib yozdiraman”) bu o‘quvchilarga imlo va tinish belgilariga doir qoidalarini o‘rgatishda hamda bu qoidalar yuzasidan hosil qilingan malakani tekshirishda qo‘llaniladigan yozma ish.[3,264] Dictogloss diktantning o‘qib eshittirilish jarayonini aks ettirishi sababli diktantga o‘xshatiladi.

Grammatika qoidalarini o‘zlashtirish uchun o‘rganuvchilar ularni amalda qo‘llab ko‘rishlari keyinroq muloqotda foydalanishlari uchun muhim hisoblanadi. Aynan dictogloss interaktiv metodi o‘rganilgan grammatik qoidani va yangi so‘zlarni talabalar tomonidan mustahkamlashlariga yordam beradi. Yana shuningdek, dictogloss til ko‘nikmlaridan o‘qish, eshitib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmasi hamda ingliz tilida savodxonlik ko‘nikmasini yani an’anaviy diktant kabi imlo qoidalarini egallashni ham rivojlantiradi.[4,26]

Dictoglossdan foydalanish jarayonida talabalar birgalikda ishlaydilar va bu ularga qiziqarli va o‘rgangan ma‘lumotlarini birgalikda muhokama qilib, fikr almashishlariga yordam beradi. O‘zaro fikr almashinuv jarayonida bir birlari bilan muloqot qiladilar, o‘rgangan til materialani ham amalda qo‘llaydilar. Mavzuga doir yangi so‘zlar jarayonning har bir bosqichida takrorlanganini sabab, talabalar osongina

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

dars davomida o‘rganib, yodlab oladilar. Dictogloss yuqorida aytilgan afzalliklaridan tashqari, xorijiy tilni o‘zlashtirishga motivatsiya beruvchi uslub hamdir.

Dictogloss talabalarining yozma nutqida uchraydigan grammatik xatolarni oldini olish va ularni bartaraf etish uchun ham samarali hisoblanadi. Ilmiy til va murakkab grammatik qoidalarni tanishtirish uchun va yozma nutqda qo‘llashni ham osonlashtiradi. Masalan, talabalarining essay yozish ko‘nikmasini shakllantirishda, ular uchun qiyinchilik tug‘diradigan essay modelini tanishtirish uchun qo‘l keladi. Uning eng afzal jihati, o‘qituvchi uchun bu jarayonni tayyorlash va tashkillashtirish qulayligidadir. Dictoglossdan foydalanish uchun o‘qituvchilarga muhim tavsiyalar:

- talabalar bu jarayonga to kirishib olgunganlariga qadar, matn va manbani bir paragrafga ega bo‘lganini tanlang
- tanlagan matningiz til materiali va shaklini qo‘llash uchun yaxshi namuna bo‘la olishi kerak;
- matn o‘qib eshittirayotganda, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qiling
- yangi o‘rganuvchilar uchun kalit so‘zlarni bir necha marotaba takrorlang va yordam bering.

Dictoglossdan foydalanish o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikda til materialini va grammatik qoidalarni o‘zlashtirish, og‘zaki va yozma muloqotda qo‘llay olishlik uning lingvodidaktik xususiyatini ochib beradi. Uning ingliz tili darslarida qo‘llash samarasi bir necha tadqiqotlarda sinalgan va ijobiy natijlarga erishilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аксенова И.Н. Методика обучения студентов видам иноязычной коммуникативной деятельности на основе диктоглосса (английский язык, языковой факультет) ААД, - М.,2023
2. Wajnryb. R. Grammar dictation.- Oxford:Oxford University Press,1990
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2020
4. McLeod.A.K. Beyond grammar teaching:Dictogloss strategies for improving literacy.English teaching Forum. americanenglish.state.gov/forum
5. Sayed. M. Using dictogloss strategy for developing secondary stage students’ English Grammar competence and Motivation towards learning English language// BSU Journal of pedagogy and Curriculum, 2023; 2(3): 134-152